

AMIR TEMUR SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUV ASOSLARI

Xurramova Sevinch Jamshid qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix yo'nalishi 33-24 guruh talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari, boshqaruv tizimining tuzilishi hamda markaziy va mahaliy hokimiyat organlari faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sahibqiron tomonidan yaratilgan siyosiy boshqaruv modeli, adolat, tartib-intizom va qonun ustuvorligi tamoyillarining davlat barqarorligidagi o'рни yoritib berilgan. Shuningdek, Temur tuzuklari asosida davlatni boshqarish usullari, harbiy-ma'muriy tizim va mansabdor shaxslarning ma'suliyati ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: A.Saidov, Amit Temur, devonbegi, chegara viloyat, hokim, vazirlar, Temur tuzuklari, Kebekxon, harbiy-ma'muriy, aylboshi, raiyat vaziri, shayxulislom, shahar, qa'la, yorliq, soliq

FUNDAMENTALS OF STATE GOVERNANCE IN THE EMPIRE OF AMIR TEMUR

Khurramova Sevinch Jamshid kizi
Gulistan State Pedagogical Institute
Student of the History Program, Group 33-24

Abstract: this article analyzes the fundamental principles of state governance in the empire of Amir Temur, the structure of the administrative system, and the activities of central and local authorities. The study highlights the political governance model created by Sahibqiran, emphasizing the role of justice, discipline, and the rule of law in ensuring state stability. In addition, based on the *Temur Tuzuklari* (Codes of Temur), the methods of state administration, the military-administrative system, and the responsibilities of officials are examined from a scholarly perspective.

Keywords: A.Saidov, AmirTemur, *devonbegi*, border province, governor, ministers, *Temur Tuzuklari*, Kebek Khan, military-administrative system, *aylboshi*, minister of the common people (*raiya*), *shaykh al-Islam*, city, fortress, decree (*yarlik*), tax.

Amir Temur juda yaxshi boshqaruvni amalga oshirgan hukmdor hisoblanadi. A.Saidov: "Amir Temur o'z davlatini har qanday kutilmagan voqealardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Davlatini kuchli va mustahkam, xalqini baxtli va uning hayotini

faravon qilishni uddalay olgan. U o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qat'iylilik bilan erishgan. Shuning uchun ham u o'sha davrda dunyodagi eng kuchli saltanatga ega bo'lgan" deya takidlab o'tgan.

Amir Temur Temur tuzuklarida hukmronlik davomida o'n ikki qoidaga amal qilganligini takidlab o'tgan: "Ushbu o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olganligim uchun to'la mustaqillik bilan saltanat taxtiga o'tirdim. O'z tajribamda sinab bildimki, agar qaysi bir podshoh shu o'n ikki narsaga ega bo'lmas ekan, saltanatdan bebaxra qoladi" deydi

Amir Temur davrida juda ko'p vazirliklar mavjud bo'lgan shu sababli ham vazirliklar masalasiga alohida e'tibor bergan. U xushyor podshoh oldida adolatli vazirlar tursin toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agar vazir zolim bo'lsa, ko'p o'tmay saltanat uyi qulaydi deb uqtirgan.

Amir Temur qonunlari va ularning ijrosini ta'minlash xalqning davlatga bo'lgan xurmatini belgilaydi deb bilgan. Bu yo'l orqali Sohibqiron o'zi qurgan davlatning obru-e'tiborini kuchaytirish jamiyat va davlat o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga intilganini anglash mumkin.

Sohibqiron fikricha hukmdor xoh kichik, xoh katta bo'lsin har ishdan ogoh bo'lishi lozim, bu tinchlik va farovonlik kafolotidir. Loqaydlik, sovuqqonlik, sovuqqonlik, davlatni boshqalarga ishonib topshirib qo'yish, xalqning, davlatning qolaversa davlat raxbarining halokatiga olib kelishi mumkin.

Amir Temur chegara viloyatlarga halol, hushyor, zamon ikir-chikirlarini yaxshi tushunadigan, jasur kishilarni qo'ygan va ularga vatanni xavfsizligi, sha'nini himoya qilishni topshirgan. "Ul joylarni deydi Sohibqiron faxm-farosat va shikoyat bobida yetuk kishilardan hech qachon holi qoldirmasin. Chunki to'satdan biror kor-hol bo'lib qolsa yoki qandaydir zarurat tug'ilsa, zudlikda g'aflat oqibatlaridan himoyalangan bo'ladi hamda nadomat, sharmanda yengil va malomat tamg'asi unga bitilmaydi".

Amir Temur davrida davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, uning yonida arkbegi (marosimlarni boshqaruvchi) hamda to'rt vazir turardi. Birinchi vazir yer soliqlari, chegara bojini undirish hamda mirshablik ishlarini bajargan. Ikkinchisi askarlar maoshi va oziq-ovqat ta'minotlari bilan shug'ullangan. Uchinchi vazir harbiylar, ularning lavozim-u mansablarga tayinlanishi va meros ishlariga qaragan. To'rtinchisi saroy xarajatlarini boshqargan. Temur davlat tuzilishi sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan bo'lsada har holda mamlakatni XIV asrning birinchi yarmida mo'g'ul xoni Kebek hukmronligi davrida joriy etilgan harbiy-ma'muriy bo'linishini saqlab qoladi. Ammo davlatning ma'muriy idora etish tarkibining takomilligi suyurg'olning keng tarqalishiga to'sqinlik qiladi.

Amir Temur askar va amirlashkarlarga alohida e'tibor beradi. Har bir (zobit, aylboshi jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan). Oddiy navkar nizomni qattiy bajarishga majbur bo'lib jangda u ayovsiz va dovyurak bo'lishi omonlik istagan

dushmanga yumshoq muomala qilish va adolatli bo'lishi lozim hisoblangan. Qo'shinlar harbiy yurishga chiqqan vaqtda ayniqsa intizomga qattiq rioya qilinar edi. Har bir bo'linmaning aylboshi, qo'shimboshi, tumanboshisi va qo'shin amiri o'z urinishi yaxshi bilardi va unga qattiq rioya qilingan.

Dunyoga hukmronlik qilishga intilgan Amir Temur to'rt narsani doimo xotirasida saqlaganligini aytadi: Birinchisi- qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo'lsa, doimo u kengash va tadbir bilan ish kurgan. Ikkinchisi- xatoga yo'l qo'ymasdan, ko'p o'ylab, ishlarni sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qilgan. Har yerning el-ulusning tabiati va mijozlarini xotirasiga keltirib ularning tabiatiga muvofiq yo'l tutib, shunga qarab unga hokim tayinlagan. Uchinchisi-uch yuz o'n uch asil zotni, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofiga birlashtirgan. Ularning barchalarining so'zlari, ishlari, raylari yagona bo'lgan deb hisoblagan. To'rtinchisi-bugungi ishni ertaga qoldirmasdan yumshoqlik qilishga tog'ri kelsa, muloyimlik qilgan qattiqqo'llik ishlatish vaqti yetsa, qat'iy choralar ko'rgan.

Amir Temur turli mamlakatlarning aholisini yo'l-yo'riqqa solish va maosh tayinlash, avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish, vaqf va nazr ishlarini tadbirga solishda tuzuklarini, yangi qonunlarini joriy qiladi. Bu qonunga binoan panohiga kelsa, Amir Temur ularni navkar qilib olgan. Shu davlatlarning raiyati yomon hodisalardan, qatl etishdan himoyalangan. Ularning mol mulki, buyumlarini talon-tarojlikdan saqlagan. Usha mamlakatlardan olinadigan o'lja soliqlar miqdorini aniq hisobga olishgan sayidlar ulamo, mashoyix, fuzulo, akobirlar aziz tutilgan. Amir Temur ayniqsa dehqonlar hayoti bilan yaqindan shug'ullanib ularga shart-sharoitlar yaratib berishni amirlardan talab qilgan.

Amir Temur saltanatida vazirlar muhim sanalgan. Saltanat tarkibiga kitgan sarxad vazirlarning huquqiy maqomlari va faoliyat tamoyillari "Temur tuzuklari"ning "Raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshiruvchilar tuzugi" da alohida maxsus va mufassal bayon etilgan "Yana har o'lkaga uch vazir tayinladim Birinchisi raiyat uchun bo'lib, andin yig'iladigan oliq soliqlarning undirilmog'ini kuzatib hisobotini olib borsi. Oliq- soliq miqdori, soliq to'lovchilarning nomlarini bitib borsin va raiyatdan yig'ilgan mablag'ni saqlasin. Ikkinchisi sipox ishlarini "boshqaradi. Sipoxga berilgan va berilmog'i lozim bo'lgan mablag' hisobini olib yurguvchilar har xil yo'l ila yig'ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz qolgan mol-mulkni qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin. Yana amir etdimki uchinchi vazir vafot etgan va daraksiz yo'qolgan kishilar kelib-ketib yuruvchilar har xil yo'l bilan yig'ilib qolgan hosil aqldan ozganlarning mol-mulki vorissiz mol-mulkni qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin. Yana amr etdimki o'lganlarning mollarini o'z vorislariga

yetkazsinlar. Agar vorisi yo'q bo'lsa, uni hayrli ishlarga sarf etsinlar yoki Makkai muazzamga yuborsinlar" deyilgan

Davlatda viloyat hokimlarining asosiy vazifalari ham belgilangan bo'lib, qattiq tartib-qoidaga asoslangan holda bajarilgan. Viloyat hokimi davlat xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifani bajarishi bilan birga, o'ziga topshirilgan shaxar va qal'alarni mustahkamlash, raiyatga adolat bilan muammolar qilish shaxar, qal'a va ulusni dushmanlar hujumidan saqlash, soliqlarni fuqorodan vaqtida undirib, markaziy hukumat xazinasiga topshirish urush vaqtida o'z qo'shinlari bilan davlat saltanat hukmdori ko'rsatgan joyga borish, jang vaqtida hukmdor tayinlagan qo'shinning ma'lum qismi o'ng chap qo'l qalbda yoki qanotida jang qilish va hokozolardan iborat bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur tomonidan butun saltanat va uning hududlarida tinchlik va osoyishtalik o'rnatgan, ichki tartibni saqlagan, o'z hududida turli jinoyatlarning sodir bo'lishini oldini olgan, mazlumlarni himoya qilgan fidoiy mahalliy hokimlarga maxsus yorliq hadya etib mamlakatda obrusini oshirgan.

Shunday qilib Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlar va uning boshqaruvi tizimi o'z davri uchun nihoyatda mukammal, puxta o'ylangan va qat'iy tartib qoidalarga asoslangan edi. Sohobqiron faqat buyuk sarkarda balki kuchli siyosatchi va dono davlat arbobi sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirdi. Uning davlatni boshqarishdagi asosiy maqsadi tartib-intizomni mustahkamlash, adolatni qaror toptirish va markazlashgan kuchli davlat barpo etishdan iborat bo'lgan. Amir Temur davlat boshqaruvida qonun ustivorligiga alohida e'tibor qaratgan. "Temur tuzuklari" asari bunga yaqqol misol bo'lib unda davlatni idora etish, harbiy tuzilma, mansabdor shaxslarning vazifalari hamda jamiyatdagi tartib-qoidalar aniq belgilab berilgan. Ushbu tuzuklar davlat hayotida muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilgan va boshqaruvda o'zboshimchalikning oldini olgan. Qonunga bo'ysunish hamma uchun barobar bo'lib, hatto amaldorlar ham qat'iy nazorat ostida bo'lgan. Amir Temur boshqaruv tizimida harbiy soha alohida o'rin tutgan.

Armiya qat'iy intizom asosida tuzilgan bo'lib, har bir harbiy bo'linmaning vazifasi aniq belgilangan. Harbiy va ma'muriy boshqaruvning uyg'unligi davlat hududlarida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Viloyatlar va uluslarga tayinlangan hokimlar markazga bo'ysungan, bu esa davlatning parokanda bo'lishining oldini olgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Amir Temur davlat boshqaruvi tajribasi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Uning adolat, intizom, markazlashuv va qonun ustivorligiga asoslangan boshqaruv tizimi zamonaviy davlatchilik uchun ham ibrat maktabidir.

ADABIYOTLAR \ REFERENCES

1. R.Zohidov. Temur tuzuklari va davlat boshqaruvi. Toshkent, 2008-52 b

2. B.Axmedov. Amir Temur. Toshkent, 1998-58 b
3. B.Abduhalimov. Amir Temur va davlat boshqaruvi. Toshkent, 2001-79 b
4. Q.Rajabov. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi. Toshkent, 2006-67 b
5. Djurayev I. N. MARKAZIY OSIYODA QADIMGI DAVRDA KO 'CHMANCHI VA O 'TROQ XALQLARNING SIYOSIY, IQTISODIY HAMDA MADANIY MUNOSABATLARI //CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 145-152.
6. Djuraev I. ON THE QUESTION OF THE RELATIONSHIP OF THE POPULATION OF THE STEPPES EURASIA AND CENTRAL ASIA IN THE BRONZE AGE //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – C. 658-661.
7. Nematovich, Djurayev Ikrom, and Djurayeva Feruza Nematovna. "Resettlement to the Fergana Valley of the Central Asian Cattle Breeders." World Bulletin of Social Sciences 20: 107-109.
8. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION / N. Jumaboyev. – International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – № 4. – P. 1489-94.